

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 3 (5)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович тарих
фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна тарих
фанлари доктори, доцент *Ўзбекистон*
Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Нарбеков Абдикамил Вафасевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Жамоат ҳафсизлиги университети
Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Али Назарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdurasulova Faxriya Bahtiyor qizi BUXORO AMIRLIGI IJTIMOYIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MA'NAVIY HAYOTINI O'RGANISHDA MANBASHUNOSLIK TAVSIFI	4
2. Abdullayev Akmaljon Xasanbay o'g'li O'ZBEKISTON TARIXI FANIDA DATA SCIENCENING O'RNI	13
3. Ergashev Husan Yusup o'g'li MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIX FANI VA TA'LIMINING RIVOJLANISHIDA O'ZMU TARIX FAKULTETINING O'RNI VA AHAMIYATI	19
4. Кенджаев Якуб Юсупович СОВЕТ ИТТИФОҚИНИНГ ҒАРБИЙ ВИЛОЯТЛАРИДАН КЎЧИРИЛГАН САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЖОЙЛАШТИРИЛИШИ (1941-1945)	26
5. Kandaxarov Anvar Xasanovich O'RTA ASR DAVLATCHILIGIDA DIN VA TASAVVUF VAKILLARINING TA'SIRI	31
6. Мухамедов Якубджан Кадирович ҒАРБИЙ ТУРК ХОҚОНЛИГИ ВА ВИЗАНТИЯ ЎРТАСИДАГИ ИЖТИМОЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАР	44
7. Нишанбаева Энахон Зарипбаевна ЎЗБЕКИСТОНДА МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШУВИ	54
8. Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич XV – XVI АСРНИНГ БОШЛАРИГА ОИД “ЯНГИ САНГАНАК” ХАЗИНАСИДАГИ БУХОРО ТАНГАЛАРИГА ДОИР	64
9. Toshxujayev Shoxrux Erkin o'g'li BOBURIYLAR SULOLASINING JAHONSIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN HISSASI	74
10. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING BOSHQARILISHIDA KADRLAR MASALASIGA OID SIYOSATI	80
11. Эшқурбонов Фазлиддин Нуралиевич., Аннаев Джалолиддин Тухташевич ТАРМИТА-ТЕРМИЗ БУДДАВИЙЛИК ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ВАЗИФАЛАРИГА ДОИР	87
12. Шакиров Ильяс Рахимзянович ВОПРОСЫ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И КОРОЛЕВСТВА ТАИЛАНД (1991-2016)	101

Usarov U.A.

t.f.f.d, (PhD)., dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

umidjon.usarov@mail.ru

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING BOSHQARILISHIDA KADRLAR MASALASIGA OID SIYOSATI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkistonda o'zining mustamlakachilik siyosatini o'rnatgan Rossiya imperiyasining o'lkada yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlar, xususan paxtani ko'proq olib ketishga bo'lgan intilishi jarayonida mahalliy kadrlar masalasida olib borgan siyosati ochib berilgan. Shuningdek, mustamlakachi imperiya ma'murlarining o'lkani idora etishdagi mahalliy aholi vakillariga tayanib ish olib borganligi turli davr manbalari, bir qator mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlari va adabiyotlar orqali tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston o'lkasi, imperiya, mustamlakachilik, ma'muriyat, boshqaruv, yer-suv, qishloq xo'jaligi, oqsoqol, mingboshi, yuzboshi, mirob, mahalliy aholi.

Усarov У.А.

PhD., доцент

Национальный университет Узбекистана

umidjon.usarov@mail.ru

ПОЛИТИКА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ ПО КАДРОВОМУ УПРАВЛЕНИЮ В ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫМ ОТНОШЕНИЯХ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается политика Российской империи, установившей свою колониальную политику в Туркестане во второй половине XIX века, в вопросе местных кадров в области сельского хозяйства. Также на основе источников разных периодов, научно-исследовательских работ и литературы по ряду тем проанализировано то, что администраторы колониальной империи опирались на представителей местного населения в управлении страной.

Ключевые слова: Российская империя, Туркестанский край, империя, колониализм, администрация, управление, земля и вода, земледелие, старейшина, тысячник, сотник, мираб, местное население.

Usarov U.A.

PhD., associate professor
National university of Uzbekistan
umidjon.usarov@mail.ru

THE POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE ON PERSONNEL MANAGEMENT IN LAND-WATER RELATIONS IN TURKESTAN

ABTRACT

This article reveals the personnel policy of the Russian Empire, which established its colonial policy in Turkestan in the middle of the 19th century, in the process of taking away more of the agricultural products and cotton grown in the country. The fact that colonial and imperial administrators relied on the population in the administration of the country was analyzed through the sources of different periods, scientific studies and literature on a number of topics..

Key words: Russian empire, Turkestan, empire, colonialism, administration, management, land and water, agriculture, oksokol, mingbashi, yuzbashi, mirab, local population.

KIRISH

O'rta Osiyoda hududida mavjud Buxoro amirligi va Xiva xonligining ba'zi hududlari hamda Qo'qon xonligi hududida o'zining mustamlakachilik siyosatini o'rnatgan Rossiya imperiyasi o'lkada o'z hukmronligini yanada mustahkamlash maqsadida har bir sohada, xususan, yer-suv munosabatlari borasida ham mahalliy kadrlar masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Imperiya hukumatining o'lkadagi ma'murlari hamda ishchi komissiyalar tomonidan markazga yetkazgan hisobotlaridan kelib chiqib, o'lkaning qishloq xo'jaligidan kelayotgan daromadlarni yanada oshirish maqsadida mahalliy aholi vakillardan chiqqan kishilarni quyi darajadagi lovozimlarga tayinlab, ularning boy tajribasidan foydalangan holda o'z manfaatlari yo'lida foydalangan. Mustamlakachi Rossiya imperiyasi o'zining bunday siyosatini rivojlantirish yo'lida mahalliy aholining ayrim imperiya hukumatiga xizmat qiladigan qismini ajratib olish va ularni turli lavozimlarga go'yoki saylov yo'li bilan tayinlab qo'yishga erishgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Imperiya hukmron doiralari Turkistonda mustamlakachilik siyosatini yuritishda, birinchi navbatda, rus harbiy quroli kuchlari[2] va Rossiya imperiyasi ichkarisidan ko'chirib keltirilgan aholi qatlamiga suyangan bo'lsa[5, – 143 b.], ikkinchi tomondan, imperiya hukumati manfaatlari uchun xizmat qilgan mahalliy oqsoqollar, mingboshi, yuzboshi, ellikboshi, muroboshi va boshqalarga tayanib ish olib bordi. Turkiston o'lkasi aholining o'ziga tobeligini yaxshi bilgan imperiya ma'muriyat vakillari o'z

maqsadiga osonroq erishish maqsadida mahalliy hukmdorlar bilan tez til topishib olishga muvaffaq bo'ldi[4].

Rossiya imperiyasi ma'muriyati tomonidan o'lkada mustamlakachilik siyosatini olib borgan dastlabki yillardan boshlab, o'lkadagi yer egaligi va suv ishlari bilan bog'liq turli nizoli vaziyatlarning oldini olishda sa'y-harakat ko'rsatadigan mahalliy aholi ichidan saylangan oqsoqollik va miroblik instituti vakillariga ehtiyoji bor edi. Ularni turli idoralar xizmatlariga jalb qilib, ma'muriy boshqaruv apparatining eng quyi lavozimlariga tayinlar edi. Ammo lavozimlarga tayinlangan mahalliy aholi vakillarining siyosiy vakolatlari nihoyatda cheklangan holda qolaverdi.

Dastlabki vaqtida imperiya hukumati o'zining mustamlakachilik siyosatini tartibga solishda, xususan yer-suv munosabatlarida ham mahalliy quyi boshqaruv vakillarining faoliyatini saylov yig'inlarida xal etgan. Joylardagi lavozimlarga mahalliy nomzodlarni tanlash va tayinlashda ma'lum mezonlarga rioya qilindi[17]. O'lkadagi rus ma'muriyati mahalliy aholi ichidan olinadigan xizmat lavozimlariga qanday nomzodlarni olish lozimligini doimiy nazoratda ushlab turdi. Bu borada N.I.Ilminskiy shunday yozadi: "Shart-sharoit va murakkab siyosiy vaziyat taqozo qilgan taqdirda ham, rus tilini yaxshi biladigan, nasroniy bo'lmagan mahalliy ziyolilarni mas'ul lavozimlarga tayinlanmaslik lozim. Mustamlaka ma'muriyati xizmatiga rus tilida tutilib gapiradigan, ruscha xatni chalasavodlarcha yozadigan, shuningdek, nafaqat gubernatorni, balki har qanday amaldorni ko'rganda bosh egib turadigan kishilar kerak" [9]. Bundan ko'rinib turibdiki, imperiya hukumatining o'lkadagi vakillari ham o'troq mahalliy aholi vakillarining boshqaruvga kelishlarini ko'p xoxlashmagan.

Ammo mustamlaka ma'murlari bu borada yagona fikrga ega bo'lgan deyish qiyin. Negaki, 1889–1898-yillar oralig'ida Turkiston general-gubernatori bo'lgan A.B.Vrevskiy rus tilini bilgan mahalliy millat vakillari, ya'ni musulmonlardan barcha ishlarda foydalanish kerakligini qat'iy taklif qilgan edi[9]. General-gubernator A.B.Vrevskiy 1891-yilda harbiy gubernatorlarga "beriladigan topshiriqlarni tushuntirish va o'z vaqtida yetkazish maqsadida rus tilini biladigan mahalliy aholini kechiktirmasdan mas'ul lavozimlarga saylash yoki tayinlash" [13] topshirig'ini bergan edi.

N.S. Likoshinning yozishicha, "Turkiston o'lkasini boshqarish Nizomi" (1886-yil) chiqqan vaqtdan beri mahalliy ma'muriyat mansabdor shaxslar tarkibini yaxshilash borasida ikki marotaba chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Ikki davrda ham mahalliy mansabdorlar orasida rus tilini o'rganishga intilishini kuchaytirishga alohida e'tibor berilgan" [13]. Bundan ko'rinib turibdiki, o'lkadagi imperiya mas'ul ma'murlari boshqaruvdagi ayrim lavozimlarga mahalliy aholi vakillarini tayinlashgan. Ammo bu davrda mahalliy aholi o'rtasida biror bir lavozimga saylov o'tkazish juda kam hollarda amalga oshirgan.

Rossiya imperiya hukumati o'z manfaatlarini amalga oshirish, o'lkani idora qilishda mulkdorlar yordamidan foydalanish uchun, avvalo, o'z atrofiga mahalliy amaldorlar, beklar, savdogarlar va boshqa mulk egalari ham to'pladi. Rus ma'muriyati timsolida mahalliy aholini avvalgi hukmdorlarning o'zboshimchaliklari va jabr-zulmidan himoya qiluvchilar sifatida namoyon bo'lishlari lozim edi[1]. Mahalliy mulkdorlar ham o'lkada tijorat ishlari va sanoat ishlab chiqarishini yo'lga qo'yishdan manfaatdor bo'lgan edilar. 1868-yil 22-yanvarda K.P. Kaufman Toshkentda xuddi shu tabaqa vakillarini to'plab, ularga "Podsho menga o'lkaning ichki tuzilishini mustahkamlash, bu yerda yashayotgan, rus, sart (bu yerda mahalliy o'zbeklar nazarda tutilgan – U.U.) va qirg'izlar tinchligini saqlash maqsadida Turkiston general-gubernatorligining barcha xalqlari uchun Peterburgda yozilgan qonunlarni amalda qo'llash tadbirlarini muhokama qilishni topshirdi. Qonunlar shunday tuzilganki, agar istasangiz sizga baxt keltirishi mumkin. Shunday qilib, hukumat toshkentliklarga, boshqa sartlar qatori miroblar, oqsoqollar, qozilar va xizmatchilarni saylash imkonini beradi", – degan murojaat bilan chiqadi" [6].

Umuman, Turkiston general-gubernatorligining faoliyati xalqning oldiga o'zlarini tinchlik tarafdori qilib ko'rsatish hamda asosiy maqsadlari eskirgan siyosiy-ijtimoiy boshqaruv tizimini yangi fuqarolik boshqaruvi usullari bilan almashtirishdan iborat ekanligiga ularni ishontirish va ko'niktirishdan iborat bo'ldi[3]. Bu borada Rossiya imperiyasi ma'murlari mustamlaka o'lkalarda boshqaruv tizimini shunday tashkil etishdiki, bu amalda joylardagi yuqori tabaqa vakillarini o'zlaridan uzoqlashtirmaslikka asoslandi[11].

O'lkada ma'muriy boshqaruv tartiblarini o'rnatish ko'zlangan iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishdagi yondashuvlar imkon qadar ehtiyotkorlik bilan amalga oshirildi[10]. Rasmiy ma'lumotlarda bu masaladagi keskin o'zgarishlar foydadan ko'ra zararli oqibatlarga olib kelishi, mahalliy aholining qarshiligini keltirib chiqarishi mumkinligi ta'kidlandi. Rossiya imperiyasi hukmron doiralarining Turkiston o'lkasida boshqaruvni tashkil etish masalasiga bunday munosabati, birinchidan, hukumatga tashqi siyosat borasida barqarorlik va tartib o'rnatish imkonini berdi. Ikkinchidan, metropoliyaning o'lka aholisidan undiriladigan soliqlardan mo'may daromad olishini ta'minladi. Uchinchidan, asta-sekinlik bilan Rossiya imperiyasi mahalliy aholini o'rnatilgan tartiblarni tan olishiga majbur etdi[16].

Albatta, ma'muriy boshqaruv va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida xalqaro muammolarga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Chunki Turkistonda o'rnatiladigan mustamlaka ma'muriy boshqaruv tizimi Rossiya imperiyasining mavqeini faqatgina Turkistonda emas, balki Yevropa va Sharq xalqlari nazrida ham oshirishga xizmat qilishi lozim edi[11]. Turkistondagi ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar loyihasini ishlab chiqish jarayoniga Rossiya hukumati boshqa mustamlaka o'lkalar, xususan, Qrim va Kavkazga nisbatan yuritgan siyosati tajribasidan kelib chiqib

yondashdi[15]. Turkistonni boshqarish tizimi imperiya hukumati tomonidan xalqaro va ichki vaziyatni nazarda tutgan holda ishlab chiqildi.

O'lkada harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi tashkil etilishi bilan mahalliy xalqlar mustamlaka tizimiga asoslangan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayoniga tortildi. Rossiya imperiyasi Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlarning mustamlakachilik tartiblari tajribalarini o'rganganlari holda ulardan tubdan farqlanuvchi, mutloq harbiylar manfaatlariga javob beradigan mustamlaka boshqaruv tizimini joriy etdi[18]. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati amaliyoti ko'p jihatdan Buyuk Britaniyaning Hindistondagi, Italiyaning Efiopiyadagi va Belgiyaning bir qator tobe o'lkalardagi mustamlakachilik siyosatidan farq qilardi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlaka tartiblari boshqa zabt etilgan o'lkalarda o'rnatilgan tartiblardan tafovut sezilar edi[8].

Turkiston o'lkasidagi Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi siyosatining mohiyati avvalo, bu yerlarda paxtachilikni yanada rivojlantirish va imperiya to'qimachilik sanoatini xom ashyo mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida ma'muriyat tomonidan ilmiy jamiyatlar tashkil etish hamda olimlarni o'lkaga olib kelishga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman o'lkaning Farg'ona viloyatining qishloq xo'jaligi va iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganish maqsadida 1876-yili Rossiya geografiya jamiyatiga murojaat qiladi. Jamiyat bu ishlarga akademik A.F.Middedorfn tavsia etadi. 1878-yilda tarkibida 5 nafar muhandis-gidrolog, botanik kabilardan iborat komissiya Farg'ona viloyatiga keladi. Bu komissiya ekspeditsiya oldiga qo'yilgan vazifalar turli mutaxassislarning shaxsiy kuzatishlari asosida Farg'ona viloyati misolida o'lkaning qishloq xo'jaligi va xalqning mavjud iqtisodiy ahvoliga doir barcha tabiiy sharoitlarni o'rganib, shu asosda o'lkaning iqtisodiy kelajagini aniqlab berishga ko'maklashishi kerak edi. Ekspeditsiya faoliyati 1878-yil bahorida 3 oy davomida Farg'ona vodiysini aylanib, to'plangan ma'lumotlarni alohida holda nashr ettiradi. Tabiiyki, bu ma'lumotlar ham o'lkada agrar siyosatni davom ettirish yo'lida muhim manba bo'lib xizmat qilgan edi[14].

Imperiya hukumati Rossiyadan ortiqcha aholini ko'chirib keltirish va ularning xavfsizligini ta'minlashni ham Turkistonda mustamlakachilik siyosatini izchil amalga oshirishdagi asosiy vazifalardan biri deb hisobladi. O'lkadagi dehqonchilik va yer tuzilishi ishlari boshqarmasi boshlig'i A. Krivoshein Rossiya imperiyasining markaziy guberniyalaridan ortiqcha aholini ko'chirish, birinchidan, rus qishloqlarida tinchlik va tartib o'rnatishga yordam bersa, ikkinchidan, o'lkada bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirish imkonini beradi degan g'oyani ilgari surdi. Buning uchun u Mirzacho'lda bir necha yuz ming desyatina yerni o'zlashtirish orqali bu yerlarga "mustahkam rus elementlarini" ko'chirish va ularga eng yaxshi yerlarni berishni tavsiya qildi. "...badavlat musulmon aholi orasida, – deb yozadi A. Krivoshein, – ko'chib kelgan

ruslar kambag'al, abgor va kamsitilgan xo'jayin bo'lishi mumkin emas. Ruslarning Turkistondagi siyosiy ustunligi ularning xo'jalik yuritish imkoniyati bilan mustahkamlanishi lozim. Ko'chib kelgan rus-xo'jayin yerida sart ishchisini ko'rish, sartning yerida rus batragini ko'rishdan ko'ra yoqimliroqdir"[12].

A. Krivoshein ruslarning ko'chirib keltirilishi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala deb qaradi. Ko'chirib keltirilganlarga alohida sharoit, unumdor yerlar berilishi lozim edi. Ko'chib keluvchilar, asosan, Sirdaryo viloyatiga kelib joylashdilar. Bundaylar soni tobora ko'paya boshlagach, bu yerda ularni yer bilan ta'minlash uchun "Yer fondi boshqarmasi" tuzildi. U, asosan, sug'oriladigan yerlarni kengaytirish va mahalliy aholiga tegishli yerlarni turli yo'llar bilan tortib olish bilan shug'ullandi. M. Jemchujnikov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, mahalliy aholidan olingan yerlar: Sirdaryo viloyatida 476 000 desyatina, Farg'ona viloyatida 75 000 desyatina, Samarqand viloyatida 3 000 desyatina, Kaspiybo'yi viloyatida 7 000 desyatina, jami 561000 desyatina bo'lgan[7].

XULOSA

Umuman olganda, XIX asr ikkinchi – XX asr boshlariga kelib, Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan to'laligicha Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirildi. Mahalliy aholini mustamlaka ma'muriyati tomonidan itoatda tutib turish uchun imperiya hukumati bir qator ishlarni amalga oshirgan. Jumladan o'lkani boshqarishda mahalliy aholi kuchidan foydalanish maqsadida o'lka boshqaruvining quyi darajadagi lovozimlariga imperiya mafaatlarga xizmat qiladigan mahalliy aholi ichidan chiqqan vakillardan tayinlandi. Bu lavozimlarga tayinlar mahalliy aholi vakillarining vakolatlari ham cheklangan va ular mustaqil tarzda ish olib bora olma edi. O'lkada joriy etilgan mustamlaka boshqaruv tizimi asrlar davomida shakllanib kelgan yer-suv munosabatlariga ta'sir ko'rsatib, uni milliy qadriyatlar zahirida rivojlanish imkoniyatidan mahrum etildi. Rossiya imperiyasi o'lkada to'liq o'zining iqtisodiy foydasini ko'paytirish va siyosiy jihatdan nufuzini mustahkamlash uchun yer-suv munosabatlaridagi kadrlar masalasini mustamlakachilik siyosatidan kelib chiqqan xolda amalga oshirgan. Bunday siyosat oqibatida o'lka aholisi to'laqonli mustamlaka ma'muriyati ta'sir doirasiga tushib qolgan.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES

1. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 16 б.
2. Бабамагов Т.К. К вопросу об особенностях формирования и организации военных сил в Туркестане (II половина XIX века) // Россия и Узбекистан: история и современность. Ч. IV. № 7. – М., 2009. – С. 7.
3. Галузо П. Г. Аграрные отношения на юге Казахстана в 1867–1914 гг. – Алма-Ата: Наука, 1965. – С. 68.
4. Галузо П. Г. Туркестан-колония. – М., 1929. – С. 35.

5. Гаффоров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми–XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 2006. – 143 б.
6. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент, 1912. – С. 63-64.
7. Жемчужников Н.Н. Движение на Восток. – М., 1927. – С. 37.
8. Иргашев Ф.Р., Абдурахимова Н.А. Мустамлакачиллик сиёсати ва Туркистоннинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи. – Тошкент: Академия, 2005. – 47-48 б.
9. Исаков Ф.Б. Национальная политика царизма в Туркистане. – Ташкент: Фан, 1997. – С. 57.
10. Кастельская З. Основные предпосылки восстания 1916 года в Узбекистане. – М.: Наука, 1972. – С. 33.
11. Киняпина Н. С., Блиев М. М., Дегоев В. В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике России (вторая половина XVIII – 80-е годы XIX в.) – М.: МГУ, 1984. – С. 289; Терентьев М. Россия и Англия в Средней Азии. – СПб., 1875. – С. 194-195, 288.
12. Кривошеин А.В. Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 году // Вопросы колонизации. – СПб., 1913, № 12. – С. 305.
13. Лыкошин Н.С. Роль жизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. Складъ Т. ва “В.А. Березовский”. Комиссионер военно-учебных заведений. – Петроград, 1916. – С. 56-57.
14. Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1872. – 489 с.
15. Rhineland L. H. Russia's Imperial Policy. The Administration of the Caucasus in the first Half of the XIXth century. – Canadian Slavonic Papers, 1975. Vol. XVII. – Pp. 218.
16. Тиллабоев С.Б. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки (Фарғона вилояти мисолида). – Тошкент: Фан, 2008. – 77 б.
17. Тухтабеков К.А. Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти: Тарих фанл. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2011. – 27-30 б.